

## QORAQALPOQ MILLIY O'YINLARIDA YIGITLAR RAQSINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Baxram Abipov Dosnazar uli**

*Ўzbekiston davlat sañat va madniyat instituti*

*Nukus filiali 4 kurs talabasi*

*Ўzbek xaliq raqslarini sahnalashtirish*

**Annotatsiya:** *Qoraqalpoq Milliy raqs san'ati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qoraqalpoq raqs harakatlari kayfiyat va hissiyot orqali ifodalanadi. U titroq tana harakatlari, shuningdek, mohirona oyoq harakatlari, nafis va murakkab sharqona qo'l harakatlari va o'ziga xos yelka va bosh harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada Qoraqalpoq milliy o'yinlarida yigitlar raqsining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yurutulgan.*

**Kalit so'zlar:** *Qoraqalpoq raqs san'ati, titroq tana harakatlari, mohirona oyoq harakatlari, nafis va murakkab sharqona qo'l harakatlari, tomoshabinlar, raqqoslar, erkaklar.*

**Abstract:** *Karakalpak national dance art has its own characteristics. Karakalpak dance movements are expressed through mood and emotion. It is manifested through trembling body movements, as well as skillful footwork, elegant and complex oriental hand movements, and unique shoulder and head movements. This article talks about the specific features of boys' dance at the Karakalpak National Games.*

**Key words:** *Karakalpak dance art, trembling body movements, skillful foot movements, elegant and complex oriental hand movements, spectators, dancers, men.*

**Аннотация:** *Каракалпакское национальное танцевальное искусство имеет свои особенности. Каракалпакские танцевальные движения выражаются через настроение и эмоции. Оно проявляется через дрожащие движения тела, а также умелую работу ног, изящные и сложные восточные движения рук, уникальные движения плеч и головы. В данной статье говорится об особенностях танца мальчиков на Каракалпакских национальных играх.*

**Ключевые слова:** *каракалпакское танцевальное искусство, дрожащие движения тела, умелые движения ног, изящные и сложные движения восточных рук, зрители, танцоры, мужчины.*

O'zbek va qoraqalpoq xalq raqs va qo'shiqlaring badiiy matnida insoniyatning paydo bo'lishidan tortib, asrlar osha shakllanib kelgan tarixi va orzu intilishlari talqin qilingan. Xalq qarashlarining tadrijida qo'shiqlarning tutgan o'zni, tarixiy asoslari, poetikasi, g'oyaviy-badiiy hususiyatlari, xalq turmush tarzidagi maishiy vazifasi, shuningdek, qo'shiqlarning janriy hususiyatlari, ularda talqin qilinayotgan ramz, obraz, tilsimlar mohiyatini ochib berish va funktsional o'zgarishlarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil etish asosida muayyan xulosalarga kelish folklorshunoslikning tadqiq etilishi zarur bo'lgan dolzarb masalalari jumlasidandir.

Qoraqalpoq raqs san'ati qadimiy va boy merosga ega ekanligini butun dunyo tan olmoqda, shuningdek, u o'zining qadimiyligini saqlagan holda, yangi zamonaviy uslublar, janrlar va sohalar bo'yicha rivojlanib bormoqda. Shuning uchun ham umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslari jarayonida amalga oshirilayotgan ishlar, milliy raqs ta'limining asosiy maqsadi ham o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy musiqa madaniyatimizni va jahon raqssini tushuna olishi bilan birga uni farqlay biladigan shaxs sifatida kamol toptirishga qaratilgandir. [1,142]

Har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki, jamiyatning jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlodi tarbiyasiga bog'lik. Ma'lumki, tarbiya shahsni jamiyatdagi ijtimoiy-ikhtisodiy ishlab chikarish munosabatlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma'naviy, aqliy, jismoniy va musiqiy rivojlanishiga muntazam ta'sir etib boruvchi o'zluksiz jarayon. Endilikdagi asosiy vazifa ana shu yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, o'larning kuch va sadoqatini ana shu Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osobyishtaligi, respublika mustaqilligini mustahkamlash yulida safarbar etishdir. Buni dunyoning ko'pgina davlatlari qatori Qoraqalpoqiston Respublikasi hukumatining olib borayotgan odilona siyosati natijasida amalga oshirilayotgan keng ishlar qulamida payqash kiyin emas.

Qoraqalpoqlarning raqs san'ati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qoraqalpoq raqs harakatlari kayfiyat va hissiyot orqali ifodalanadi. U titroq tana harakatlari, shuningdek, mohirona oyoq harakatlari, nafis va murakkab sharqona qo'l harakatlari va o'ziga xos yelka va bosh harakatlari orqali namoyon bo'ladi.

XIX asrda Xiva xonligiga tashrif buyurgan fors diplomati Rizo-quli Mirza xonlik xalqini ta'riflab, qoraqalpoqlarning, ayniqsa, erkaklar bayramlar kunlarida raqs tushishni yaxshi ko'rishlarini ta'kidladi. Erkak raqslaridan tomoshabinlar quvvat olishadi; erkaklarning "hu" va "ha" tovushlarining kuchi nafaqat raqqoslarni ruhlantiradi, balki tomoshabinlarni ham hayajonga solib, yurak urishini tezlashtiradi va yashashga turtki beradi.

XX asrda qoraqalpoq xalq raqslari professional darajaga chiqib, sahnalarda namoyish etila boshlandi. Ko'plab xoreografik namoyishlar, shu jumladan, "Ayqulash" (Oydin kecha), "Shagala" (Baliqchi qush), "Aral jigitleri" (Orollik yigitlar), "Shopanlar" (Cho'ponlar), "Qarauy" (Yurta), "Kiyiz basu" (Kigiz bezagi), "Suo'gabargan qiz" (Suv olish uchun kelgan qiz) va boshqalar., oddiy qoraqalpoq xalqining etnografik motivlari, ana'nalari, urf-odatlarini bilan bog'liq.

Misol uchun, "Kigiz bezagi" raqsida butun kigizni bezatish jarayoni aks etgan., garchi raqs, haqiqiy mehnat jarayonining deyarli butunlay takrorlanadigan "mehnat" harakatlariga asoslangan bo'lsa-da, u she'riy shaklga ega bo'ldi.

"Ayqulash" raqsi, ilk sevgi hissi uyg'onadigan, oydin kechagi yoshlarning xalq sayllarini o'zida aks ettiradi.

XIX asrda Xiva xonligiga tashrif buyurgan fors diplomati Rizo-quli Mirza xonlik xalqini ta'riflab, qoraqalpoqlarning, ayniqsa, erkaklar bayramlar kunlarida raqs tushishni yaxshi ko'rishlarini ta'kidladi. Erkak raqslaridan tomoshabinlar quvvat olishadi; erkaklarning "hu" va "ha" tovushlarining kuchi nafaqat raqqoslarni ruhlantiradi, balki tomoshabinlarni ham hayajonga solib, yurak urishini tezlashtiradi va yashashga turtki beradi.

XX asrda qoraqalpoq xalq raqslari professional darajaga chiqib, sahnalarda namoyish etila boshlandi. Ko'plab xoreografik namoyishlar, shu jumladan, "Ayuqulash" (Oydin kecha), "Shagala" (Baliqchi qush), "Aral jigitleri" (Orollik yigitlar), "Shopanlar" (Cho'ponlar), "Qarauy" (Yurta), "Kiyiz basu" (Kigiz bezagi), "Suo'gabargan qiz" (Suv olish uchun kelgan qiz) va boshqalar., oddiy qoraqalpoq xalqining etnografik motivlari, ana'nalari, urf-odatlarini bilan bog'liq.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev SH.M. Biz kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz.- Toshkent, «O'zbekiston», 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora- tadbirlar to'g'risida»gi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Akbarov I. Musiqa lug'ati G'afur Hulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti T.
4. <https://karakalpakstan.travel/dance/?lang=uz>
5. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)